

O'rta yer dengizining qahramonlarga makon bo'lgan so'ngsiz ufqlariga qaragan kichik bir tepa mittigina gul bog'chasi kabi edi. Nozik, uzun shoxli bodom daraxtlarining turfa soyalari sohil tomon tushar, erta bahorning mayin shamollariga sarxush bo'lgan baliqchi qushlarning savdoyi shovqin-suroni havoda jarang sochardi. Bodomzorning yoni keng bir bog' edi. Oq toshlardan tiklangan qisqa devorning o'rtasidagi xaroba vodiya qadar tushardi. Bog'ning o'rtasidagi buzilgan kulbaning eshiksiz kirish joyidan bir qariya chiqdi. Go'yo bukchaygan belini to'g'rilagan kabi kerishdi. Soch-soqoli oppoq mo'ysafidning qo'llari, oyoqlari titrar edi. Osmon qadar bo'sh, ko'k qadar sokin turgan dengizga uzoq boqdi.

- Xayrlidir, inshaalloh dedi o'z-o'ziga.

Devor ostiga to'shalgan toshlarga cho'kdi. Qo'llarini boshining orqasiga oldi. Qariyaning egnida yirtiq bo'z kiyim bor edi. Yalang'och oyoqlari tuproqqa qorilgan, zaif qo'llari esa kirlangan bronza rangiga kirgan edi. U boshini ko'tardi. Ko'k bilan dengizni birlashtirgan tuman chegarasiga diqqat bilan boqdi - ammo ko'rinadigan hech narsa yo'q edi.

Mo'ysafid har kecha uyqusida bir qancha yelkanli kemaning uni qutqarish uchun kelayotganini ko'radigan eshkakchi edi. Bir zamonlar eski bir turk kemasida eshkakchilik qilgan qariyaning qirq yillik umri asirlikda o'tgandi. O'ttiz yoshida kuchli matros, chayir qahramon bo'lgan hoida Malta qaroqchilarining qo'liga tushgan edi. Yigirma yil ularning kemalarida eshkak eshdi. Yigirma yil ikki oyog'i zanjirlar bilan bog'lanib, kema ostidagi rutubatli xonada yashadi. Yigirma yilning yozlari, qishlari, shamollari, bo'ronlari, quyoshlari uning po'latdek vujudini eritilmadi. Zanjirlari mog'orlashdi, chiridi, uzildi. Yigirma yil ichida bir necha marta xalqalari, mixlarini almashtirdilar. Ammo uning chinor-da mustahkam oyoqlariga hech nima kor qilmadi. U faqatgina tahorat ololmagani uchun xafa bo'lardi. Har namoz vaqtida ko'zlarini qibla tomonga burar, besh vaqt ibodatni ishorat bilan o'qir edi.

Ellik yoshga yetganida uni ortiq eshkak esholmaydi deb, bir orolda sotib yubordilar. Uning xojasi bir dehqon edi. Bir burda non uchun o'n yil uning qo'lida ishladi. Tangriga shukr etardi. Chunki endi uning oyoqlaridan mixu zanjirlar olib tashlangandi. Tahorat olishga imkoni bor, qiblagga qarab namoz o'qir, esida qolgan oyatlarini o'qib ibodat, duo qila olardi. Butun umidi tug'ilgan yeri Edremitga yetishish, qayta ko'rish edi. O'ttiz yil ichida bir laha ham bu umid uni tark etmadi. "O'lganimdan so'ng tirilishimga qanchalik ishonam, ellik yil asirlikda yashasam-da bir kun Vatanimga yetishishimga shunchalik umid qilaman" derdi u.

U eng dongdor, eng mashhur turk kemachilaridan edi. Yigirma yoshidayoq Jabal al-Tariq bo'g'ozidan o'tgan, katta dengiz flotlarini bir o'zi kichik kemasida yenga olgan edi. U zamonlar Turk elida uning nomi tillarda doston edi. Hatto podshoh uni saroyga chaqirtirib, boshdan kechirganlarini o'zidan eshitardi. Chunki u Hizr alayhissalom kezman diyordlarda sayr etgan edi. Shunday dengizlarda bo'lgan ediki, unda tog'lardan baland muz parchalari suzar edi. U tomonlar umuman boshqa dunyo edi. Olti oy kunduz, olti oy kecha bo'lardi. Zavjasini ham o'sha sirlil o'lkalardan topgan edi. Kemasi oltin, kumush, inju, olmos, asirlar bilan to'lib Vataniga qaytar ekan, dengiz o'rtasida uylangan, o'g'li Turg'ut ham yo'lda - Chanoqqal'aga yetgan paytda tug'ilgan edi. O'g'li hozir qirq besh yoshga kirgan bo'lsa kerak. Ajabo, tirikmikan? Xayolini band etgan, qorlardan oppoq zavjasi hozir hayotmikan? Qirq yilki, Istanbulning minoralari, dengiz ufqi xayolidan hech ketmaydi. "Bir kemam bo'lsa, ko'zimni shart yumardim-u, Vatan tomon yo'l olardim" deya orzu qilardi

Oltmish yoshdan o'tganidan keyin xojasi uni ozod qildi. Bu ozod qilish emas, uni o'z holiga tashlab qo'yish, ko'chaga haydash edi. Qari tutqun ushbu qarovsiz bog'dagi xaroba kulbani topdi. Shu yerdan panoh topdi. Hech kim hech narsa demadi. Ora-sira qishloqqa tushar, qariligiga achinib berishgan sadaqalarni to'plab, yana kulbasiga qaytardi. Ortiq kuchi qolmagan edi. Uning ishlashini endi bog' sohibi ham istamas edi. Qayoqqa ham borar edi?

U avval ko'rgan tushlarini endi qaytadan ko'rayotgan edi. Qirq yillik tush Turklarning, turk kemalarining kelishi

Ko'zlarini qaqshagan qo'llari bilan ishqaladi. Dengizning ko'k bilan birlashgan joyiga qaradi. Ha, ular kelishadi, albatta, kelishadi. U bunga shunchalar ishonardiki

- Qirq yil ko'rilgan tush aslo yolg'on bo'lmas, - derdi u o'z-o'ziga. Kulba devorining ostiga oyoqlarini uzatdi. Sekin-asta ko'zlarini yumdi. Erta bahor umid uchquni kabi har yoqni nurga to'ldirardi. Baliqchi qushlarning "kelayaptilar, kelayaptilar, seni qutqarish uchun kelayaptilar" deganga o'xshagan ovozlari tinglab uxlab qoldi. Devor toshlarining orasidan chiqqan hasharotlar ustida kezib yurar, bo'z kiyimining ichiga o'rmlar, yumshoq, oppoq soqollari orasida o'ynashardi. Qari asir tushida katta bir turk kemasining bandargohga kirganini ko'rardi. Qishloqqa ketadigan yo'lga bir qancha askar chiqqan edilar. Qizil bayroqni uzoqdan tanidi. Shamshirlar, qalqonlar quyosh aksida porlar edi. Biznikilar! Biznikilar! deya baqirib uyg'ondi. O'ziga keldi. Ustidagi hasharotlar tumtaraqay qochdilar. Bandargohga boqdi. Haqiqatan, qo'rg'onning qarshisida bir kema ko'rinardi. Yelkanlar, eshkaklarning bichimiga diqqat etdi. Rangi oqarib ketdi. Ko'zlarini ochdi. Yuragi tez ura boshladi. Qo'llarini ko'ksiga qo'ydi. Bular turk kemalari edi. Qirg'oqqa yaqinlashayotgan edilar. Ko'zlariga ishonmadi. "Ajabo, tushimmi, o'ngimmi?" deya taajjubga tushdi.

Uyg'ongandan so'ng tush ko'rilmamidi? O'zini ishontirish maqsadida qo'llarini tishladi. Yerdan o'tkir tosh parchasini oldi. Qo'liga urdi. Ha, u og'riqni his qilayapti. Demakki, uyg'oq, ko'rayotgani tush emasdi. Sevinchdan, sarosimadan tizzasi jonsizlandi. O'tirib qoldi. Qirg'oqqa chiqqan harbiy qism qo'llarida qizil bayroqlari bilan to'g'ri qo'rg'onga kelardilar. Qirq yillik kutishdan so'ng u yana o'zini qo'lga olishga urindi. Birdan suyaklari qisirladi. Bodom daraxtlarining gulli soyalari bo'ylab, qirg'oqqa qarab yugurdi, chopdi. Qirg'oqqa chiqqan askarlar oq soqolli qariyaning o'zlarini tomon yugurib kelayotganini ko'rgach:

- To'xta, - deya baqirdilar. Qariya to'xtamadi, u ham baqirdi:

- Men turkman, o'gillarim, turkman.

-

Askarlar uning yaqinlashishini kutdilar. Qariya turklarning yoniga yaqinlasharkan, ilk uchraganini quchoqlab, o'pa boshladi. Ko'zlaridan yoshlar oqar edi. Buni ko'rganlar mutaassir edilar. Biroz hayajoni bosilgandan so'ng so'radilar:

- Qanchadan beri asirlikdasiz?

- Qirq yildan beri.

- Qayerliksiz?

- Edremitlik.

- Ismingiz nima?

- Qora Memish.

- Kapitanmidingiz?

- Ha

Qariyaning atrofidagi askarlar bir-birlariga yaqinlashdilar. Hayqiriq yangradi: "Xo'jayinga xabar bering! Xo'jayinga xabar bering!..". Qariyaning qo'llaridan tutdilar. Qush kabi dengiz qirg'og'iga eltib, qayiqqa o'tqazdilar. Keyin katta kemaga olib

This is not registered version of TotalDocConverter

boridilar. Asta-gina uning qahramonlari sarqizasharini bilmagan, u haqda eshitmagani yo'q edi.

Qariya kema sahnida biroz turdi. Sevinchdan sarosimada, o'zini yo'qotgan edi. Kiyish uchun bir ishton berdilar. Eginiga ko'ylak tashladilar. Boshiga dastor kiygizdilar.

- Ketdik, xo'jayinning yoniga, - dedilar.

Uni bu yerga keltirgan askarlar bilan ulkan kemanding ortiga yurdilar. Shopmo'ylov, zarlangan kiyimi ustiga temir, po'lat zirh kiygan bahaybat bir odamning qarshisida to'xtadilar.

- Siz kapitan Qora Memishmisiz?

- Ha!

- Hizr alayhissalom kezgan joylardan o'tgan sizmisiz?

- Menman.

- Rost gapiryapsizmi?

- Nega yolg'on so'ylayin?

- Oching, o'ng qo'lingizni ko'rayin.

Qariya ko'ylagi ichidan qo'lini chiqardi. Shimardi. Xo'jayinga uzatdi. Mushagida xoch bichimidagi chuqur bir chandiqlik izi bor edi.

Bu chandiqlikni kechalari olti oy bo'ladigan bir oroldan xotini bilan qaytayotganda olgan edi. Xo'jayin, uning qo'llarini o'radi. O'pa boshladi.

- Men sizning o'glingizman, - dedi.

- Turg'utmisan?

- Ha!

Tutqun qariya sevinchidan o'zidan ketdi. Hushiga kelgach, o'g'li unga:

- Men qirg'oqqa jang uchun chiqyapman. Siz kemada rohat oling, - dedi. Eski qahramon qabul qilmadi:

- Yo'q. Men ham sizlar bilan jangga chiqaman.

- Judayam qarigansiz, ota.

- Ammo yuragim kuchli!

- Dam oling, ota. Bizni kuzatib turing.

- Qirg'yilki, muhorabani sog'indim

Og'li otasiga tiz cho'kib, B "Vatanni, sevgan insonlarni ko'rmasdan sizni takror yo'qotmayin, otajon", deya yolvorib qo'llarini o'pdi.

Qariya boshini ko'tarib, ko'ksini tik tutib, yana yoshligiga qaytgandek edi. Bayroqqa ishora etib:

- Shahid bo'lsam, buni ustimga yoping. Qizil bayrog'im hilpiragan joy Vatan emasmi? dedi.

1910

Forsa - kemada eshkakchilikka mahkum qilingan qul.